



_____ *hokimligi*
maktabgacha va maktab ta'limi
boshqarmasi

_____ *maktabgacha va*
maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi
___-umumiy o'rta ta'lim maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
_____ *ning*

20__-20__-o'quv yili
5-6-sinflar iqtidorli o'quvchilar uchun
“YOSH ADABIYOTSHUNOS”

TO'GARAK
HUJJATLARI

To'garak a'zolari haqida ma'lumot

<i>№</i>	Familiya ismi va sharifi	Tug'ilgan sanasi	Sinfi	Manzili (to'liq)	Ota-onasi (Ismi sharifi)	Telefon (uy yoki mobil)	Izoh
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							
<i>15.</i>							

16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

O'tkazilgan xona _____

“Kelishildi”
MMIBDO‘: _____
“ _____ ” _____ 20__ yil

“Tasdiqlayman”
Maktab direktori: _____
“ _____ ” _____ 20__ yil

**20__-20__-o‘quv yiliga iqtidorli o‘quvchilar uchun tuzilgan
“Yosh adabiyotshunos” to‘garagining
ISH REJASI**

№	Yillik ish reja mavzulari	Soat	Sana	Izoh
1.	Abdulla Oripov. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?”			
2.	Ertak. “Uch og‘a-ini botirlar”			
3.	Hadislar			
4.	A.Ko‘chimov. “Binafsha”			
5.	Matnazar Abdulhakim. “Darsdan so‘ng”			
6.	Sharq hikoyat va rivoyatlari			
7.	Hamza Imonberdiyev. “Ohu”			
8.	Isajon Sulton. “Otamga nimadir bo‘ldi...”			
9.	Mirtemir. “To‘rg‘ay”			
10.	Alisher Navoiy. “Qanoatli va qanoatsiz do‘st”			
11.	Nodar Dumbadze. “Hellados” hikoyasi 2-qism			
12.	Erkin Vohidov. “Tandir haqida ertak” she‘ri			
13.	Ridyad Kiplingning “Maugli” asaridan parcha: “Yo‘lbars, yo‘lbars”			
14.	Hamid Olimjon. “O‘zbekiston” she‘ri			
15.	Janni Rodari. “Hurishni bilmaydigan kuchukcha” ertagi.			
16.	Ivan Krilov. “Bo‘ri bilan qo‘zichoq” masali			
17.	Xudayberdi To‘xtaboyev hayoti va ijodi			
18.	Zulfiya hayoti va ijodi.			
19.	Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi			
20.	Tog‘ay Murod hayoti va ijodi			
21.	Ibroyim Yusupov hayoti va ijodi			
22.	Hamza Hakimzoda Niyoziy			
23.	Saida Zunnunova			
24.	Shuhrat			
25.	Rasul Hamzatov			
26.	Asqad Muxtor hayoti va ijodi			
27.	Mirmuhsin			
28.	O‘lmas Umarbekov			
29.	Chingiz Aytmatov			
30.	Turdi Farog‘Iy			
31.	Jahon Otin Uvaysiy			
32.	Zavqiy hayoti va ijodi			
33.	Abdulla Qodiriy			
34.	Takrorlash			

Sana: “ ” 20__-yil. Sinflar: _____ . To‘garak rahbari: _____

Mavzu: Abdulla Oripov. “Men nechun sevaman O‘zbekistonni?” she‘ri

Maqsadlar:

a) ta‘limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar berish, mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, badiiy asar mazmunini tushuntirish, adabiy qahramonlar haqida bilim berish, o‘qilgan matnni tahlil qilish va to‘g‘ri ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy maqsad: kitobga mehr uyg‘otish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

v) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini, mustaqil fikrlashini, tasavvurini hamda badiiy tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

Axborot manbalari va texnik vositalari: kompyuter, proyektor, ekran, slayd, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, videolavhalar, rag‘bat kartochkalari.

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob) aqliy hujum, aralash, interfaol.

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni: Xalqimizning sevimli shoiri Abdulla Oripov 1941-yilning 21-martida Qashqadaryo viloyatida dunyoga kelgan. O‘zi haqida shoir bunday yozadi:

“Men tug‘ilib o‘sgan, bolaligim o‘tgan joylar Qarshi (qadimgi Nasaf) shahridan besh-o‘n chaqirim shimolroq tomondagi Qo‘ng‘irtov etaklaridir.

..Bahor kelganda havoni o‘t-o‘lanning yoqimli xushbo‘y hidi qoplar, sharros yomg‘ir quyganda biz tog‘ cho‘qqisi unguridagi kichik-kichik g‘orlarga bekinib Olardik. Ungur - tog‘ yonbag‘ridagi o‘yiq joy.

O‘sha yuksaklikdan shimol tarafdagi yam-yashil, bepoyon kengliklarni tomosha qilar edim, ko‘ksimni to‘ldirib nafas olardim. Ayniqsa, bu joylarda janub kechalari, yulduzli osmon nihoyatda go‘zal bo‘lar edi. Tim qora osmonda qo‘l cho‘zsang yetgudek ulkan-ulkan novvotrang yulduzlar charaqlab turadi. Hayotimda bunday go‘zal manzaralarni keyin uchrata olmadim...

She‘rlarim avval tuman, viloyat gazetalarida chop etilgan bo‘lsa-da, birinchi marta respublika gazetasida

“Qushcha” degan she‘rim bosilib chiqqan... Bu orada qanchadan qancha she‘rlarim, to‘plamlarim chop etildi.

Biroq ilk she‘rim bosilib chiqqan o‘sha daqiqalar, uning quvonchi sira-sira esimdan chiqmaydi”.

Qushcha

Goh butoqqa, goh gulga qo‘nar,
Tinim bilmas sayroqi qushcha.
Nechun bahor seni rom etgan,
Qayda eding bahor kelguncha?

Kel, yashaylik hamisha birga,
Bizda bahor, gullar – barchasi.
Bilsang, men ham chaman o‘lkamning
Sho‘x va quvnoq, shod o‘g‘ilchasi.

Men nechun sevaman O‘zbekistonni?

Men nechun sevaman O‘zbekistonni,
Tuproq‘in ko‘zimga aylab to‘tiyo?
Nechun Vatan deya yer-u osmonni
Muqaddas atayman, atayman tanho?
Aslida dunyoda tanho nima bor?
Paxta o‘smaydimi o‘zga elda yo?
Yoki quyoshimi sevgimga sabab?
Axir quyoshli-ku butun Osiyo.
Men nechun sevaman O‘zbekistonni?
Bog‘larin jannat deb ko‘z-ko‘z etaman,
Nechun ardoqlarkan tuprog‘ini men
O‘paman: “Tuproq‘ing bebaho, Vatan...”
Aslida tuproqni odil tabiat
Taqsim aylagan-ku yer yuziga teng.
Nechun bu tuproq deb yig‘ladi Furqat?
O, Qashqar tuprog‘i, qashshoqmiding sen?!
Xo‘sh, nechun sevasan O‘zbekistonni?



III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Sizga Vataningizning suratini chizib bering deyishsa, dastlab xayolingizga nimalar keladi? Nimalarni qog‘ozga tushirar edingiz? Tasvirda qanday ranglardan foydalanardingiz? Nima uchun?

2. Shoirning Vatan, yer, osmon kabi tushunchalarni muqaddas va yagona deb hisoblashi sababi nimada?

3. Sizningcha, shoir Vatanni faqat paxtasi, quyoshi, bog‘-u rog‘iari uchun yaxshi ko‘radimi yoki buning boshqa sabablari ham bormi? Misol sifatida qanday sabablarni ayta olasiz?

IV. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

V. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kesish.

Maktab MMIBDO‘ _____ sana _____ 20__ yil

Mavzu: Ertak. “Uch og‘a-ini botirlar” ertagi

Maqsadlar:

a) ta‘limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar berish, mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, badiiy asar mazmunini tushuntirish, adabiy qahramonlar haqida bilim berish, o‘qilgan matnni tahlil qilish va to‘g‘ri ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy maqsad: kitobga mehr uyg‘otish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

v) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini, mustaqil fikrlashini, tasavvurini hamda badiiy tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

Axborot manbalari va texnik vositalari: kompyuter, proyektor, ekran, slayd, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, videolavhalar, rag‘bat kartochkalari.

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob) aqliy hujum, aralash, interfaol.

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni: Folklorshunos olim Omonulla Madayev bunday yozadi:

“Ertaklarda xalq tiliga mansub so‘zlardan o‘rinli foydalanila-di. Aytuvchi o‘z hikoyasini sodda gaplardan tuzilgan aniq fikrlar vositasida davom ettiradi. Bu janrga mansub asarlar-da, albatta, qizlar o‘n to‘rt kunlik oydan go‘zal, yigitlar mard, qilichlar keskir, dasturxonlar ochiluvchan, xumlar qaynama xususiyatlarga ega bo‘ladi. Ertaklarda juda boy va turli-tuman o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham xalq og‘zaki ijodi tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma‘noda qadriyatlar namunasi, madaniy mero-simizning noyob gavhar-u injulari darajasida e‘zozlanadi”.



Omonulla Madayev

Uch og‘a-ini botirlar (ertak) I qism

Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim-qadim zamonda bir kishi bo‘lgan ekan. Boy ham, kambag‘al ham emas ekan. lining uchta o‘g‘li bor ekan, uchovi ham o‘qigan, oq-u qorani tanigan, yuzlari o‘yday, o‘zlari toyday, yomon bilan yurmagan, yomon joyda turmagan ekan. Jo‘ng‘ichi - yigirma bir, o‘rtanchasi - o‘n sakkiz, kenjasi - o‘n olti yoshda ekan. Bir kuni otasi ularni oldiga chaqirib, har birining

pehonasini silab: - O‘g‘illarim, men boy emasman, mendan qoladigan davlat sizlarning maishatingiz uchun kifoya qilmaydi, mendan ortiq narsani umid qilib o‘tirmanglar, o‘zimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar deb sizlarni o‘qitdim. Yaxshi ism qo‘ydim. To‘y qildim. Voyaga yetkazdim. Buning ustiga, sizlarni yana uch narsa bilan tarbiya qildim. Birinchidan, sog‘lom vujudli qilib o‘stirdim - quvvatli bo‘ldingiz. Ikkinchidan, yarog‘ bilan tanishtirdim - qurol ishlatishga usta bo‘ldingiz. Uchinchidan, qo‘rqitmay o‘stirdim - qo‘rqoq bo‘lmay, botir bo‘ldingiz. Yana uchta narsani aytaman, qulog‘ingizga quyib olib, esingizdan chiqarmanglar. To‘g‘ri bo‘ling - bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang - xijolat tortmaysiz. Dangasalik qilmang - baxtsiz bo‘lmaysiz. Bundan boshqasini o‘zingiz biling. Qora toy, saman toy va ko‘k toyni asboblari bilan tayyor-lab qo‘ydim. Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim. Baxtingiz yo‘lda, topmoq uchun dunyo kezgani chiqing. Dunyoni tanimay, dunyo kishisi bo‘lmaysiz. Baxt qushini ushlamoq uchun baxt oviga chiqing. Xayr, o‘g‘illarim, - deb turib ketdi. O‘g‘illari suyunib, safar tayyorgarligini ko‘rib, erta tongda otlanib yo‘lga tushdilar. Uch og‘a-ini kuni bo‘yi yo‘l yurib, juda uzoq ketdilar. Namozshom vaqti bir joyga yetdilar. Kecha-si yo‘l yurmoqni munosib ko‘rmay, shu joyda yotib qolmoqni ma‘qul topib, otlaridan tushib, istirohat qilib, ovqat yeb, yotish oldidan o‘zaro bunday maslahatga kelishdi: “Bu joy to‘- qayzor ekan, biz uzoq yo‘l bosib kelganmiz, charchab uxlab qolsak, yaxshi bo‘lmas, ke-chani uch qismga bo‘lib, har bir qismida birimiz navbat bilan soqchi bo‘lib uyg‘oq turaylik”.



To‘ng‘ich aka birinchi navbatni oldi. Ikkala ukasi uyquga ketdi. Chiroq lipillab yonib turar edi. Aka qo‘lidagi yarog‘ini o‘ynab, atrofdagi daraxtlarni tomosha qilib, bir qancha vaqt o‘tirdi. Jimjit. Hech narsa shit etmas edi. Hamma narsa uyquda. Kecha oydin edi. Bir vaqt to‘qay ichidan bir sharpa ko‘rindi. To‘ng‘ich botir hech qo‘rqmadi, yarog‘ini yalang‘ochlab, tayyor bo‘lib turdi.” Bular tushgan to‘qayning narigi tomonida bir sherning makoni bor edi. Bulardan boshqa hech kiron bu joyga tushmas, hatto boshqa hayvonlar ham bu joyga kelgani qo‘rqar edi. Sher bularning hidini bilib, yemoq uchun asta-sekin uyasidan qo‘zg‘alib chiqib keldi. To‘ng‘ich botir sherni o‘ldirishiga ishonsa ham, “Ukalarim bezovta bo‘lmasin” deb, to‘qayning bir tomoniga qarab qochdi. Sher quvdi. To‘ng‘ich botir panaga yashirinib, sherning orqa tomoniga qilich bilan urib, uni yaraladi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash: Otaning tarbiya usullariga munosabat bildiring. Uning qilgan ishlari nimasi bilan ahamiyatli deb o‘ylaysiz?

IV. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchilliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

V. Uyga vazifani e‘lon qilish: yangi mavzuni to‘liq takrorlash va yangi mavzu yuzasidan bilimlarini mustahkamlab kelish.

Mavzu: Hadislar

Maqsadlar:

a) ta‘limiy maqsad: o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha nazariy ma‘lumotlar berish, mavzu bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarni hosil qilish, badiiy asar mazmunini tushuntirish, adabiy qahramonlar haqida bilim berish, o‘qilgan matnni tahlil qilish va to‘g‘ri ifodali o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish.

b) tarbiyaviy maqsad: kitobga mehr uyg‘otish, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, yaxshilik, kamtarlik tuyg‘ularini singdirish, ona Vatanimizga va ota-onasiga cheksiz mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash.

v) rivojlantiruvchi maqsad: o‘quvchilarning og‘zaki nutqini, mustaqil fikrlashini, tasavvurini hamda badiiy tafakkurini, ilmiy dunyoqarashini, asarlarni tahlil qilish hamda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish, erkin fikrlashga, muammoli vaziyatlar yechimini topishga o‘rgatish, mavzu asosidagi bilim, ko‘nikmalarini boyitish.

Axborot manbalari va texnik vositalari: kompyuter, proyektor, ekran, slayd, ko‘rsatmali va tarqatma materiallar, videolavhalar, rag‘bat kartochkalari.

Mashg‘ulotning metodi: og‘zaki (suhbat, savol-javob) aqliy hujum, aralash, interfaol.

I. Tashkiliy qism: salomlashish, yo‘qlama qilish, o‘quvchilarni mashg‘ulotga tayyorgarliklarini tekshirish.

II. Yangi mavzu bayoni: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: “Bir odam yo‘lda ketayotib chanqab qoldi. Bir quduqni topib, unga tushib suv ichdi. So‘ng quduqdan chiqib, bir itning tashnalikdan harsillab tuproq namini yalayotganini ko‘rdi. Shunda u o‘ziga o‘zi: “Bu it ham men kabi chanqabdi”, deb quduqqa qayta tushdi va mahsisini suvga to‘ldirdi-da, quduqdan chiqib, itga ichirdi. Alloh taolo bu solih amali tufayli uning gunohlarini kechirdi”, dedilar. Shunda sahobalar: “Ey Rasululloh, hayvonlarga suv ichirsak ham bizga savob tegurmi?” deyishdi. Janob Rasululloh: “(Biz sug‘oradigan) har bir jonzotda biz uchun savob (ajr) bordur”, dedilar”.

Savobning katta-kichigi yo‘q

Borar ekan yo‘lda bir odam,
Tashnalikdan toldi juda ham.
Ko‘rib nogoh quduqni yo‘lda,
Chanqog‘ini qondirdi undan.
So‘ng boqsaki, bir it harsillab
Tuproq namin turardi yalab.
Sayyoh shundoq o‘yga boribdi:
“Buyam xuddi mendek horibdi”.

Tag‘in pastga tushib ketdi u,
Olib chiqdi mahsi to‘la suv.

Suvni tashna itga ichirdi,

Alloh uning aybin kechirdi. *A‘zam O‘ktam*

Anas ibn Molik roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: “Nabiy sollallohu atayhi vasaltam: “Siztardan birortangiz o‘zi uchun yaxshi ko‘rgan narsani birodari uchun ham ravo ko‘rmaguncha mo‘min bo‘la olmaydi”, deditar”.

Mo‘min ermastur, ulki iymondin

Ro‘zgorida yuz safe ko‘rgay,

Toki qardoshiga ravo ko‘rmas –

Har nekim o‘ziga ravo ko‘rgay.

Alisher Navoiy

Safo - yorug‘lik, ravshanlik.

Keling, suhbatlashamiz

1. Yuqoridagi hadis mazmunidan kelib chiqib, mo‘min kishiga ta‘rif bering.

2. O‘ziga ravo ko‘rganini birodari uchun ham ravo ko‘rish deganda nimani tushunasiz? Hadisda faqat moddiy narsalar nazarda tutilganmi? Fikrlaringizni dalillang.

3. Xalqimizda ushbu hadis mazmuniga mos keluvchi qanday qadriyatlar bor? Sanab bering.

Bahor kelishi bilan daraxtlar uyg‘onadi. Qir-adirlar yam-yashil tusga kirib, alvon-alvon ranglarga bo‘yaladi, soy-u daryolar suvga to‘lib, tosha boshlaydi. Ariq, soy yoqaiarida yalpizlar unib, iforini taratadi, dala-yu qirlar esa sapsariq boychechaklarga burkanadi. Shu tarzda bahor o‘z ko‘rkini yoyadi. Bobo-buvilarimiz boychechak va chuchmomalarni ko‘zga surtib “omonliq-esonliq” qilishadi. Ushbu urf-odatning qanday ma‘nosi bor deb o‘ylaysizlar? Bu faslda qir-adir, dalalarga chiqib, boychechak, lolaqizg‘aldoq va chuchmomalar terib, gulchambarlar yasash, turli xil milliy o‘yinlar o‘ynash, ayniqsa, varrak uchirish bolajonlarga maroq bag‘ishlaydi. O‘yinlarda kimdir sho‘xlik qilib, kimdir esa g‘irromlik bilan o‘yin qoida- larini buzib turadi. O‘sha vaziyatlarda qanday yo‘l tutgansizlar? Sizga yoki jamoaga nohaqlik qilgan bolalarga qanday munosabatda bo‘lgan ma‘qul deb hisoblaysiz? Agar bu ishni o‘yinboshi qilsa-chi?

III. Yangi mavzuni mustahkamlash:

1. Ushbu hadis orqali qanday xislat ulug‘lanyapti deb o‘ylaysiz?

2. Hadis va she‘rdagi kabi vaziyatga duch kelganmisiz? Nima qilgansiz?

IV. Darsni yakunlash: o‘quvchini yutuq va kamchiliklarini muhokama qilish, rag‘batlantirish.

V. Uyg‘a vazifani e‘lon qilish: O‘zbek kinoijodkorlari suratga olgan “Kichkina tabib” filmi tomosha qilganmisiz? Filmda doim hayvonlarga ozor beradigan “Hasanboy terminator” obrazi bor. Unga yuqoridagi hadis mazmuni asosida tavsiyalar yozib keling.

veb-saytimiz: Zokirjon.com

Zokirjon.com veb-sayti orqali o'zingiz uchun kerakli ma'lumotlarni yuklab oling.

Zokirjon Admin bilan

90-530-68-66, 91-397-77-37 nomerga telegram orqali bog'lanishingiz nza456 yoki nza445 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.

Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi.

41 listdan iborat adabiyot fanidan

5-6-sinf 34 soatli iqtidorli to'garakni to'liq holda

olish uchun telegramdan yozing.




Telegram kanalimiz:

@Maktablar_uchun_hujjatlar

To'lov uchun: HUMO 9860230104973329

Plastik egasi Nabiyev Zokirjon



DIQQAT!!!

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng

yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga

joylamang.

Bizni hizmatdan foydalanib qulay imkoniyatga ega bo'ling!
Bizda rus va o'zbek maktablar uchun quyidagi hujjatlar
mavjud.

- 1. 1-11-sinflar uchun kelajak soati ish reja va konspektlari UZ-RU**
- 2. 1-11-sinflar uchun barcha fanlardan to'garak hujjatlari UZ-RU**
- 3. Sinf rahbar hujjatlari UZ-RU**
- 4. Metodbirlashma hujjatlari UZ-RU**
- 5. Ustama hujjatlari UZ-RU**
- 6. 1-11-sinflar uchun barcha fanlardan konspektlar UZ-RU**
- 7. 1-11-sinflar uchun ish rejalar (Taqvim mavzu rejalar) UZ-RU**
- 8. Maktab ish hujjatlari UZ-RU**
- 9. Direktor ish hujjatlari UZ-RU**
- 10. MMIBDO' ish hujjatlari UZ-RU**
- 11. O'IBDO' ish hujjatlari UZ-RU**
- 12. Psixolog hujjatlari UZ-RU**
- 13. Xotin-qizlar qo'mitasi ish hujjatlari UZ-RU**
- 14. Kutubxona mudirasi ish hujjatlari UZ-RU**
- 15. Besh tashabbus hujjatlari UZ-RU**
- 16. Ochiq dars ishlanmalar, taqdimotlar, slaydlar UZ-RU**
- 17. Bayonnomalar UZ-RU**
- 18. O'qituvchilarning ilg'or tajribasini omalashtirish hujjatlari**
- 19. Tezislar, referatlar, mustaqil ishlar.**

ONLINE KOMPYUTER XIZMARLARI

O'zbek va rus maktablar uchun

Buyutirma asosida

1-11-sinflar uchun barcha fanlardan **testlar, nazorat ishlar, tezislar, to'garaklar va yillik fan konspektlar, tadbir senariylari, ochiq dars ishlanma va slaydlar** (taqdimotlar), **ko'rgazma va tarqatmalar, faxriy yorliq, diplom, tashakkurnomalar** va boshqa hujjatlarni tayyorlab beramiz.
Tel:91669-34-74 Telegramdan:[@talimxizmatlar](#) izlab toping.

Для 1–11 классов узбекских и русских школ по всем предметам: **тесты, контрольные работы, тезисы, сценарии кружков, годовые конспекты уроков, сценарии мероприятий, разработки открытых уроков, слайды (презентации), стенды и раздаточные материалы, почётные грамоты, дипломы, благодарственные письма** и другие документы.

Тел: **91669-34-74** Telegram: [@talimxizmatlar](#)